

E'TIQOD ILMIY BILIMNING IRRATSIONAL OMILI

Kalandarova Gavhar Sulaymonovna,
Toshkent davlat Agrar universiteti assistenti,
Tel: (99) 895 61 04 Toshkent davlat Agrar universiteti
E-mail: gavharqalandarova86@gmail.com

M. Abduraimova
f. f. nom. dots. taqrizi asosida

Annotatsiya

Ushbu maqolada, e'tiqod ilmiy bilimning irratsional omilining ahamiyati asoslangan. Darhaqiqat, ilmiy bilimlar evolutsion nuqtai nazaridan muayyan ko'rinishdagi e'tiqodlar asosida rivojlangan, bu bilimlarni tadqiq etuvchi ta'limot - epistemologiyada pertsetiv (hissiy), hayotiy - kundalik (sog'lom aql) va ilmiy bilim shakllari ajratib ko'rsatiladi. Bu esa o'z navbatida bilimlarning ilmiy va ilmdan tashqari shakllari ham farq qilinishini ta'kidlash zarur. Jumladan, ilmdan tashqari bilimlarga madaniyat, adabiyot, san'at, mifologiya, din kabi sohalarga oid bilimlar kiradi.

Kalit so'zlar: bilim, irratsional, ishonib bog'langan narsalar, e'tiqod va bilimning mutanosibligi, totemizm, fetishizm, ezoterik bilimlar, tasavvur, ob'ektivligi, sezgi, idrok, tasavvur, abstrakt mantiqiy bilish.

BELIEF IS AN IRRATIONAL FACTOR OF SCIENTIFIC KNOWLEDGE**Abstract**

In this article, faith is based on the importance of the irrational factor of scientific knowledge. In fact, scientific knowledge is developed on the basis of beliefs of a certain form from the point of view of evolution, in the study of this knowledge - epistemology, perceptive (emotional), vital - everyday (common sense) and scientific forms of knowledge are distinguished. In turn, it is necessary to emphasize that scientific and non-scientific forms of knowledge are also distinguished. In particular, non-science knowledge includes knowledge related to such areas as culture, literature, art, mythology, and religion.

Key words: knowledge, irrational, things related to belief, the ratio of belief and knowledge, totemism, fetishism, esoteric knowledge, imagination, objectivity, intuition, perception, imagination, abstract logical knowledge.

Вера – иррациональный фактор научного познания

Абстрактный. В данной статье вера основывается на важности иррационального фактора научного познания. По сути, научное знание вырабатывается на основе представлений определенной формы с точки зрения эволюции, при изучении этого знания - гносеологической, перцептивной (эмоциональной), жизненно-бытовой (здорового смысла) и научной форм знания. различаются. В свою очередь, необходимо подчеркнуть, что различают также научные и ненаучные формы познания. В частности, к ненаучным знаниям относятся знания, относящиеся к таким областям, как культура, литература, искусство, мифология, религия.

Ключевые слова: знание, иррациональное, вещи, связанные с верой, соотношение веры и знания, тотемизм, фетишизм, эзотерическое знание, воображение, объективность, интуиция, восприятие, воображение, абстрактно-логическое знание.

Darhaqiqat, ilmiy bilimlar evolutsion nuqtai nazaridan mayyan ko'rinishdagi e'tiqodlar asosida rivojlanadi. Shuningdek, rus olimi N.S.Murdagey fikricha, ratsionallik mantiqiy jihatdan tizimlashgan bo'lishi lozim. O'rta asr faylasufi Avgustin Avreliy irratsional bilim hisoblangan e'tiqodni inson ruhini irratsionalistik tarzda tushunish orqali iroda erkinligining muhim xususiyatlarini falsafiy va diniy jihatdan asoslab berganligini ta'kidlash zarur. Avvenerious esa yuqorida ilgari surgan nazariyani introektsiya deb tushuntirishga harakat qilgan. Shunga ko'ra, u inson bilimlarining yagona manbai sifatida sezgilarni va ular ishonchli bilim hosil qilishda yetakchi ahamiyatga egaligini ta'kidlaydi.

Astral nazariyalardan biri, ibtidoiy din hisoblangan totemizm da odamning hayvonot yoki o'simlikning muayyan turlariga qarindoshlik aloqasi bor, deb ta'kidlangan. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, V.Polikarpovning «Totemizm mafkurasi ijtimoiy ongning birinchi shakli hisoblanadi» [Поликарпов В.С. Эстетика, язык, общество // Философские науки. – М.: Наука, 1984. № 5. – С. 139.], degan yondashuvi diqqatga sazovordir. Totemistik qarashlarga ko'ra, ushbu ibtidoiy dinning paydo bo'lishi odamlarning birligini anglashidan yuzaga kelganligi va bu birlikning tashqi belgisi sifatida tabiiy jarayonlar tashkil qilishi e'tirof qilinadi. O'z navbatida, bu ibtidoiy dinning elementlarini hozirgi davrda ham uchratishimiz mumkin. Masalan, o'zbeklarda musicha, laylak va qaldirg'ochni muqaddas qushlar sifatida e'zozlanishi totemizmning o'ziga xos ko'rinishlaridan biridir. Undan tashqari, Markaziy Osiyo xalqlarida muchalga qarab vaqtni aniqlash totem e'tiqodlari bilan bog'liq ekanini alohida ta'kidlash zarur. Unga ko'ra, ajdodlarimizda odamlarning yoshini, ya'ni tug'ilgan kundan boshlab qancha yashaganligini muchal orqali, muayyan hayvon nomlari bilan atalgan yil hisobidan keltirib chiqarish bilimlari shakllanganligini alohida e'tirof etish joizdir. Demak, totemizm e'tiqodi insonlarning tabiat bilan uzviy bog'liq holda dunyoqarashi o'sib borishi va natijada kishilarning diniy dunyoqarashida tabiiy o'zgarishlarga olib kelgan, deb xulosa qilish mumkin.

E.Teylorning ta'kidlashicha, qadimgi odamlar tabiatning qudratli kuchlari –osmon, yer, quyosh, yomg'ir va boshqa bir qator narsalarda jon va ruhlar mavjudligiga ishonib ularni ilohiylashtirgan. Shuningdek, R.Marett, L. Sternberg kabi olimlar tomonidan animizm davri butun tabiatning animatsiyasi sifatida tasavvur qilishi animizm tafakkur uslubi o'zgarishi davridagi alohida bosqich, deb xulosaga kelish imkonini beradi.

Biz R.Marettning «Dinning ibtidosi» nomli kitobiga asoslanib dinning kelib chiqish ildizlarini shaxsiyati mavjud bo'lmagan umumiy dinamik kuchdan qidirish

lozimligi haqidagi fikrini asosli deb hisoblaymiz. Zero, moddiy buyumlarda ham g'ayritabiiy xususiyatlar borligiga ishonish orqali dinning yana bir ibtidoiy shakli fetishizm shakllanganligini ham tan olish lozim. Xususan, qadimda jonsiz fetishlar bilan birga jonli fetishlardan ham foydalanilgan. Shu jumladan, qadimgi inson ongida har xil tog', daraxt, tosh, hayvonlar suyagi, qushlarning pati va tumorlarda g'ayritabiiy kuch bor, degan qarashlar asosida ushbu din shakllangan va odamlarning har xil buyumlar, tog'-toshlar, daraxtlarga sig'inishi hozirgi davrda ham davom etayotganligini tan olish lozim. Jumladan, o'zbeklarda qurg'oqchilik davrida yomg'ir so'rash marosimi bo'lgan. «Sust xotin» va kuchli shamolni to'xtatish marosimi «Choy momo» va ofat yuz berganda qurbonlik qilish va boshqa bir qator marosimlar insonlarni tabiat bilan uzviy bog'liq holda e'tiqodining shakllanishiga olib kelgan, deb aytish mumkin. Shu ma'noda A.Abduraxmanovning: «Tabiat kuchlarini o'rganishda shomonlar ham g'ayritabiiy qobiliyatga ega», degan fikriga qo'shilish mumkin. Shunga ko'ra aytish mumkinki, ushbu ibtidoiy dinda tartibga va muvozanatga solingan yaxlitlik sifatidagi kosmos g'oyasi mavjud.

Shunisi e'tiborga molikki, antik davrda yuzaga kelgan e'tiqodiy bilimlarni irratsional bilimlar orqali tasavvur qilishgan. Shu jihatdan olib qaraganda, rus faylasuflaridan biri A.F.Losev yozishicha: «irratsionallik o'zining mutlaq ma'nosida tan olinadi, o'z-o'zicha irratsional: hech kimsa tomonidan va hech qachon bilim bo'lmaydigan (Platon "g'oyalari")»[Лоцев А.Ф. История античной философии. – Москва: ЧеРо, 1998. – С.184.]. Shunday ekan bilim hosil qilish jarayonida Platon qarashlari inson tafakkur tarziga muayyan shaklda asos vazifasini bajargan. Xususan, bu jarayon ijtimoiy – iqtisodiy omillarning ta'sir etishi bilan chambarchas bog'langan- quldorlikning vujudga kelishi aqliy mehnatni jismoniy mehnatdan ajralishiga olib keladi. Aqliy mehnat, bu - ratsional fikr yuritishning rivojlanishidir, bu jarayonda mifalogik afsonalar o'rnini, aqliy "qurilmalar" egallaydi.

Irratsionallikni tahlil qilishda o'rta asrlarda faylasuflar, diniy nuqtai nazardan qarashgan. Jo'shqin rivojlanayotgan fan mustaqil bo'lishga harakat qiladi. Xususan, muommoning o'rta asrlardagi holatini (ham Sharqda ham G'arbda) o'rganish jarayonida qo'yidagilar kuzatiladi. N.S.Murdagey yozishicha: «Haqiqatni so'zsiz, mulohazasiz qabul qiluvchilar lageri va e'tiqod qilinishi lozim bo'lgan aqidalarni tanqidiy ravishda, aqliy dalillar asosida anglanishini talab etuvchilar lageri. Bular falsafa va fan rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan

qarama – qarshi maqsadlarga yo'nalgan ko'rsatmalar edi»[Abduraxmanov A. Saodatga eltuvchi bilim. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: Movarounnahr, 2002. – B.230].

Tahlilimizcha, VII-XII asrlarda musulmon Sharqda madaniyat va fanning ravnaq topishi aql va diniy e'tiqod mutanosibligi, demak ratsionallik va irratsionallik mutanosibligi masalasini keltirib chiqardi. Musulmon ilohiyotchilari (asosan fiqh sohasida) Aristotel davomchilari sifatida izchil ratsionalizm va shuningdek ilmiy tadqiqotlar metodologiyasini rivojlantirdilar. Ularning fikriga ko'ra, ratsionalizm bu

– mavjudlikni tadqiq etishda aqlga tayanishdir. Eng mukammal mulohaza bu dalillar keltirish, isbotlash orqali amalga oshadigan mulohazadir. Isbotlash haqiqatni izlashga yo'nalgan. Isbotlashning turli hil ko'rinishlari mavjud. Bundan tashqari ilmiy tadqiqotda ilmiy merosdan foydalanish, izchilik, nufuzli alloma va mutafakkirlar, fikridan foydalanish kabi usullarni qo'llash tavsiya etilgan.

Xususan, Sh.Sirojiddinov yozishicha: «Falsafa usulini, ya'ni aqliy (ratsional) ta'limotni islomga olib kirgan asosiy mutakallimlar mu'taziliylardir Mu'taziliylar, birinchi bo'lib, din aqidalarini mantiqqa suyanib sharhladilar. Oллоh adolati qanday amalga oshadi, yovuzlik qayerdan paydo bo'lgan, qabilidagi savollar oldin hech kimni qiziqtirmagan bo'lsa, bu masala mu'taziliylarning say-harakati bilan kalom bahslarining bosh masalasiga aylandi. Biroq mu'tazilaga guruhlar mantiqiy tafakkurga erk berib, din asoslarini shubha ostiga oldilar. Qur'oni karimning yaratilma ekani haqidagi g'oya shu jumladandir. Shariat ahli islom dunyosida tobora avj olayotgan erkin tafakkur tarzini bo'g'ib bo'lmasligiga amin bo'lgach, uni shar'iy yo'lga muvofiqlashtirishga harakat qila boshladi. Shariat va ilohiyotni kelishtirish, mantiqiy fikrni shar'iy asoslarga qo'yish - bid'at va buzg'unchi g'oyalarga qarshi kurashning yagona chorasi ekanligi tushunib yetilgunga qadar oradan bir asr vaqt o'tdi»[Мурдагей Н.С. Рациональное и иррациональное философская проблема (читая А. Шопенгауэра) вопросы философии. – Москва: 1994. – Б.27].

Tahlillarga ko'ra, musulmon madaniyatining o'rta asrlarda Arabistondan Markaziy Osiyoga kirib kelishi natijasida bilimning muayyan shakllari yuzaga kelganligini ta'kidlash zarur. Xususan, Frans Rouzentel: «o'rta asrlar musulmon Sharqi madaniyatini bilim tantanasi»[Sirojiddinov Sh. Islom falsafasiga kirish: Kalom ilmi. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2008 – B.6] degan fikrni bildirgan. Ishonamizki, bu xulosani o'rta asr G'arbiy Yevropaga ham tadbiq etish mumkin. Chunki, yuqorida ta'kidlaganimizdek, bu yerda ham avveroizm - ikki haqiqat to'g'risidagi ta'limot -tarafdorlari bo'lgan. Xususan, «ratsionalizmdan ham falsafa sohasida, ham ilohiyot sohasida keng foydalanilgan»[Роузентал Ф. Торжество знания. Концепция знания. Средневековом ислама. – М.: 1978.]. O'rganilyotgan muommoga ilohiyotning munosabatini aniqlash chuqur izlanishlarni talab etadi. Lekin o'sha davrning Abu Hamid al – G'azzoliy, Ismoil Buxoriy kabi nufuzli ilohiyotchilar qarashlariga tayanib dastlabki xulosalar chiqarish mumkin. Umuman olganda ularni fanga, fanlarni o'rganishga bo'lgan munosabati ijobiy bo'lgan. “Axir ular samovot va Yer mamlakatlari haqida Oллоh

yaratgan narsalar to'g'risida va ajallari yaqinlashib qolgan bo'lishi mumkinligi hususida o'ylamadilarmi?!” va boshqa oyatlari asos bo'lgan. Shu bilan birga ilohiyotning o'zi ham ratsionallashtirilgan edi. Lekin mutafakkirlar ilgari surgan diniy ta'limot va g'oyalar qattiq cherkov tomonidan qarshilikka duch kelganligini aytish lozim. Xuddi shunday ahvol o'rta asr Yevropa ham kuzatiladi. Masalan, quyidagi ta'limotlar: Ikki haqiqat to'g'risidagi g'oyalar katolik cherkovi aqidalariga qarama-qarshi hisoblanib, xristian ilohiyotchi –mutafakkirlari (Bonaventura, Buyuk Albert, Tomas Akvinat) tomonidan tanqid qilindi, ham cherkov hokimiyati tomonidan qoralanganligini ta'kidlash zarur.

Shunday qilib, ilohiyot, tadqiq etilayotgan muommoni hal etishda ratsionallikni rad etmagan holda, ustunlikni diniy e'tiqodga – irratsionallikka beradi. Aql din aqidalarini asoslab berishi lozim: “fan -ilohiyot cho'qqisidir”. Demak, din ratsionallikdan erkinlikdan mahrum etib, uni faqat vahiy sirlarini ochish masalasini hal etishga majbur qilib, faoliyatini cheklab qo'ydi, rivojlanishini orqaga tortdi. Sh.Sirojiddinov yozishicha: «Islom dinining ilk shakllanish davrida aqida, ibodat, din va huquq, diniy jamoa va davlat, ruhoniylar va dunyoviy hokimiyat masalalarida bahslar ko'tarilmagan. Muhammad (s.a.v.) barcha hukmlarni vahiy orqali olar va ularni so'zsiz bajarish barcha musulmonlar uchun vojib sanalar edi. Musulmonlar Payg'ambarning shaxsi, hayot tarzi, axloq-odobiga fidoyilarcha taqlid qilishar, ayniqsa, qalb osudaligi va xotirjamligiga, ruhiy taskin topishga intilgan odamlar uchun u ibrat namunasi edi. Uning o'g'itlari mantiqiy-aqliy muhokama va falsafiy mushohadalarga o'rin qoldirmas, undan taralayotgan iymon nuri ishonch va e'tiqodni mustahkamlar edi. Turgan gapki, vahiy bor ekan, haqiqatning boshqa manbasi haqida o'ylashning zarurati yo'q edi. Muhimi vahiy orqali nozil bo'lgan so'zlarni yodda saqlash, tushunish va ularni hayotga tatbiq etish edi. Bu esa Qur'onni yod bilish va uning hukmlarini bajarish, Payg'ambar sunnati va u belgilab bergan tafakkur tarzidan og'ishmaslikni taqozo etardi»[Абдуллаева Н.М. Фалсафа ва фанда рационализм муоммоси. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти. 2007. – Б.26]. Lekin shuni ta'kidlash lozimki o'rta asrlarda ratsionallik va irratsionallik mutanosibligi din va sxolastikaga bog'liq ravishda o'zgarib turgan. Shunga ko'ra, o'sha davrda Tertulianning: “bemani bo'lgani uchun e'tiqod qilaman” va Aliyo Avgustining: “tushunish uchun e'tiqod qilaman” degan bir-biriga zid fikrlarning keng tarqalganligi yoki Tomas Akvinatning ushbu qarama- qarshi mulohazalarning murosaga keltirishga intilganligini asoslash mumkin. Shuning uchun falsafa tarixining ushbu davri tadqiq etilayotgan muommo nuqtai nazaridan chuqur, xronologik o'rganilishni talab etadi. N.M.Abdullayeva fikricha: «Bu muommoga bo'lgan tasavvuf vakillari munosabati o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ular yuqorida qayd etilgan ko'rsatmalarni (diniy e'tiqod va bilimni) bir-biriga zid deb hisoblamaganlar. Ular bu ko'rsatmalarni Ollohga yetishish jarayonidagi bosqichlar deb bilishgan»¹.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

¹ Абдуллаева Н.М. Фалсафа ва фанда рационализм муоммоси. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2007. – Б.27.

1. Поликарпов В.С. Эстетика, язык, общество // Философские науки. – М.: Наука, 1984. № 5. – С. 139.
2. Лосев А.Ф. История античной философии. – Москва: ЧеРо, 1998. – С.184.
3. Abduraxmanov A. Saodatga eltuvchi bilim. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: Movarounnahr, 2002. – В.230.
4. Мурдагей Н.С. Рациональное и иррациональное философская проблема (читая А. Шопенгауэра) вопросы философии. – Москва: 1994. – Б.27.64 116
5. Sirojiddinov Sh. Islom falsafasiga kirish: Kalom ilmi. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2008 – В.6.
6. Роузентал Ф. Торжество знания. Концепция знания. Средневсковом ислама. – М.: 1978.
7. Абдуллаева Н.М. Фалсафа ва фанда рационализм муоммоси. – Тошкент: Фалсафа ва хуқуқ институти. 2007. – Б.26. 119.